

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA LIGVISTIK IFODA XUSUSIYATLARI (“QORALAMALAR QASIDASI” SHE'RI TAHLILI)

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz fililogiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg (1939-2009)- o'zbek adabiyotining rus tilida ijod qilgan yirik vakillaridan bo'lib, o'z asarlarida inson ruhiyati, so'z qudratini teran badiiy va falsafiy qarashlar bilan ochib bera olgan. Uning “Qoralamalar qasidasi” she'ri ham shu jihatdan o'zining o'ziga xos poetik hamda lingvistik xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir bu she'rda ijod muqaddas jarayon ekanligini, so'zning kuchi, yozuv va ilhomning sirli bog'liqlikka ega ekanligini tasvirlaydi.

Kalit so'zlar: qoralama, ramziy obraz, leksik qatlam, emfatik parallelizm, metafora, antitezalar.

Faynberg qalamiga mansub “Qoralamalar qasidasi” she'rini o'qir ekanmiz, shoir bu she'rda o'z kasbining, o'z burchining mohiyatini chuqur anglashini tushunib yetamiz. U “qoralama”, ya'ni asarning boshlang'ich shaklini, ijodning yashirin, biroq eng vafodor qismatini ramziy obraz sifatida talqin qiladi:

“Bir umr qulflangan qoralamalar

Kabi hech kim senga bo'lolmas sodiq.”

Shoir ushbu satrlarda “qoralama”da yashirin haqiqatni ko'radi va uni yozuvning eng samimiy shakli ekanligiga ishora qiladi.

She'rning leksik qatlamida ijod, so'z, qalam, qoralama, tong, rishta, shon-shuhrat kabi semantik maydonni shakllantiruvchi so'zlarga ko'zga tashlanadi.

“Qoralama”- ijodiy jarayonning boshlang’ich shakli, ammo ijodkor uni shunchaki chizma emas, ruhiy sodiqlikning timsoli ma’nosida ishlatadi.

“So’z”- metaforik nuqtai nazardan hayotning o’zi bo’lib, shoir uni she’r davomida jonli, tirik mavjudot sifatida tasvirlaydi.

“Rishtalar”- ilohiy aloqa, shoirni Yaratgan bilan bog’lovchi yashirin ip ifodasi.

Bu so’zlarning har biri o’ziga xos falsafiy mazmunga ega bo’lib, she’rning semantik maydonini chuqurlashtiradi.

She’rda empatik parallelizm, ya’ni bir xil tuzulmaga ega gaplarning takrori tez-tez kuzatiladi:

“Shoir, shu borliqqa tong chog’i ochil,

Boshqa yo’l tanlama qabrga qadar.”

Mana shunday sintaktik tuzilmalar she’r ohangdorligini ta’minlaydi. Faynberg sodda, lekin ichki musiqiy ohangga ega sintaktik quruluşdan mohirlik bilan foydalanadi. Masalan:

“Ko’zni yummay turib yoqib bo’lmaydi

Faqat, faqat qoramani.”

Bu yerda “faqat” so’zini takroriy qo’llanishi ritmik urg’uni kuchaytiradi.

Faynberg bu she’rda xilma-xil poetik va stilistik vositalardan foydalanadi. “Qoramalar-sodiq do’st”, “so’z-yulduz tovushi” kabi metaforalar orqali abstrakt tushunchalar obrazli ifodasini topsa, “So’z yig’laydi”, “rishta Haqqa yetar” kabi jumalalarda so’z va rishta so’zi orqali jonlantirish san’atidan foydalanilgan. Shu bilan bir qatorda u o’z she’rida antitezalardan ham salmoqli foydalanadi. Masalan “Tong-qabr”, “yorug’lik-zulmat”, “qoralama-kitob” kabi qarama-qarshiliklar shoirning falsafiy o’ylarini yoritishga xizmat qiladi. Bu she’rda lingvistik jihatdan leksik ramziylik, intonatsion muvozanat va metaforalar uyg’unlik kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Qoralamalar qasidasi" she'ri tom ma'noda o'z muallifining go'zal va samimiy ichki dunyosini ham falsafiy mulohazalari bilan ham badiiy-lingvistik boyligi bilan ajoyib tarzda ko'rsatib bera olgan. Shoir bu she'ri orqali davrning eng nozik masalalaridan bo'lmish ijodiy mas'uliyatni til orqali falsafiy darajada yoritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A.A. Tanlagangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Rahmonov N. XX o'zbek she'riyati tahlillari.- Toshkent: Universitet, 2010.
3. Karimov S. Lirik va tafakkur uyg'unligi.- Toshkent; fan, 2001.
4. Ziyouz.com kutubxonasi- Aleksandr Faynberg she'rlari.- www.ziyouz.com
5. Faynberg A.A. Izbrannye proizvedeniya. – Moskva: Sovetiskiy pisatel', 1985